

MUSTAQILLIK YILLARIDA BUXORO AMIRLIGINING MAHALLIY BOSHQARUV MASALASINING TADQIQ ETILISHI

Атамирзаева Мунаввар Абдурашид қизи

Таянч докторант

Тошкент давлат техника университети

Sanjar7108@mail.ru

Тошкент, Ўзбекистон.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7927884>

Buxoro amirligi mustaqillik davri tadqiqotlarining ko'pchiligi amirlik markaziy boshqaruvi tarixiga bag'ishlangan. Mahalliy boshqaruv tarixiga oid muayyaan bir tadqiqot hali yaratilmagan bo'lib, u haqidagi ma'lumotlarni ayrim viloyatlar tarixini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlardan bilib olish mumkin. Shunday tadqiqotlar sirasiga B.S. Yakubov, G.M. Taniyeva, J.M. Shodiyev, R.E. Xoliqova, Y.A. Avazov va boshqa tadqiqotchilarni kiritish mumkin.

XVIII – XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida davlat markaziy hokimiyatga bo'y sunuvchi viloyatlarga bo'lib boshqarilgan. Bu esa amirlikda mahalliy boshqaruv tizimini tashkil qiladi. Xuddi shunday viloyat ma'muriy boshqaruv tizimini Qashqadaryo viloyati misolida yoritib bergen tadqiqot G.M. Taniyevaga tegishli bo'lib, uning "Qarshi viloyatining Buxoro amirligi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni" nomli dissertatsiyasining ikkinchi bobu aynan amirlik ma'muriy boshqaruv tizimini ochib berishga hizmat qiladi. Ushbu bobda viloyat ma'muriy boshqaruv tizimi va uning o'ziga xos hususiyatlari hamda Qarshi shahrining tarkibiy tuzilishi, mahalla va guzarlari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Ilmiy tadqiqot ishida keltirilishicha, Qarshi shahrini amir tomonidan tayinlangan hokim boshqargan. U viloyat markaziy hokimiyat boshqaruvini amalga oshiruvchi shaxs hisoblangan. Muallifning ta'kidlashicha, hokim sud ishidan tashqari barcha ma'muriy, moliyaviy huquqlarga ega bo'lib, o'zining saroyiga, qo'l ostidagi ko'plab amaldorlariga ega bo'lgan. Ularning soni amlokidorlardan tashqari 100 dan ortiq bo'lib, ko'pchiligi hokimning yaqinlari, qarindoshlari hisobangan. Uning qo'l ostida *devonbegi*, *yasavulboshi*, *zakotchi*, *qozi*, *rais*, *mirzaboshi*, *mirshablar hizmat qilgan*. Undan tashqari, hokimning 50 nafardan ortiq yollanma sarbozлari bo'lib, ular hokimga tegishli inshootlar va zindonni qo'riqlab turgan hamda hokimdan oyda bir ma'lum miqdorda maosh olgan¹.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishida hokimning tayinlanishi bilan bog'liq masalalarga to'xtalib, u amir tomonidan tayinlanib, vafot etsa, barcha mol-mulki davlat xazinasiga o'tganligi, farzandlari esa merossiz qolishi, shu boisdan ular doim amir hizmatida o'zini ko'rsatishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan.

Bundan tashqari, amirlik mahalliy bosharuvida muhim o'rinnegallaydigan lavozimlar va ularning vazifalari haqida ham bir muncha to'xtalib o'tilgan. Bunday lavozimlar sirasiga *yasavulboshi*, *mirshab*, *qozi*, *raislarni misol qilish* mumkin. Tadqiqotda *yasavulboshi* haqida to'xtalinib, u hokimdan keyingi o'rinda turuvchi amaldor ekanligi, uning vazifasi esa aholidan tushgan arznomha, iltimosnomalarni hokimga, hokimning buyruq va topshiriqlarini esa aholiga etkazib turgan va hokimning shaxsiy qo'riqlilar boshlig'i ham hisoblangan, deb izohlanadi. Shuningdek, viloyat qozilari hokimdan mustaqil tarzda faoliyat yuritganligi va ular amir tomonidan tayinlanishi xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Dissertatsiyada yana bir muhim lovozim raisning faoliyati

¹ Таниева Г.М. Қарши вилоятининг Бухоро амирлиги сиёсий, ижтимоий-иктисодий ҳаётида тутган ўрни (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг биринчи ярми). Тарих.фан.номзод.дисс. Тошкент. 2008. –Б 51.

haqida to'xtalinib, u bozorlardagi o'lchov asboblari, tarozi va narxlarning to'g'rilagini kuzatish, har qanday ko'ngilochar o'yinlarni, tamaki chekish, sharob, may kabi ichimliklar iste'mol qilinishini man etish va tartibni buzganlarni jazolashi asosiy vazifasi ekanligi izohlangan².

Xullas, ilmiy tadqiqot ishidagi mahalliy boshqaruva tarkibi va faoliyati, amaldorlar, viloyat moliyaviy asosi, ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linishi, amlokdorlar faoliyati, viloyat aholisi turmush tarzi, urug'lar, ilmiy tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan "el" tushunchasi haqidagi yangi fikrlar, mavze va oqsoqolliklar, uning boshqaruvdagi ahamiyati, faoliyati, harbiy qo'rg'onlar va ularning faoliyati, soliqlar yig'inlari, turlari, miqdori, aholi majburiyatlari kabi masalalarga manbalar tahlili asosida xulosalar berilgan hamda xronologik tarzda yoritib berilgan. Ahamiyatli jihat shundaki, tadqiqot davomida XVIII asr o'rtalari va XIX asrning birinchi yarmida viloyat ma'muriy boshqaruvining boshqa viloyatlar idoraviy tizimi bilan o'xshash tomonlari bilan birga undan farq qiladigan o'ziga xos jihatlari ham ochib berilgan. Shunday qilib muallif Qarshi viloyati Buxoro amirligining markaziy hokimyatga bo'ysunuvchi mahalliy boshqaruvga ega viloyatning hukumat siyosatining barcha talablariga javob bergan, siyosiy, harbiy, iqtisodiy sohalarda eng ishonchli tayanch ma'muriy hududlardan biri bo'lganligini ishonchli dalillar bilan isbotlab berishga erishdi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, O'zbekistonda ilk bor Buxoro amirligining ma'muriy birliklarga ajratilishida bekliklarga emas, viloyatlarga bo'linishi to'g'risida ishonchli dalillar orqali isbotlab berildi.

J.M. Shodiyevning ilmiy maqolalarida ham Buxoro amirligi mahalliy boshqaruvi masalasiga bir muncha to'xtalib o'tilgan. Uning tadqiqotlarida amirlikning viloyatlarga bo'lib boshqarilishi va amallar xususida fikr yuritilgan.

R.E. Xoliqova esa mahalliy boshqaruv masalasini yaxlit holda tadqiq qildi³. Uning tadqiqotlarida amirlikning bekliklarga bo'lib boshqarish aparati, o'z navbatida viloyatlarning ham boshqarish tuzulmalari, unvonlar va mansablar xususida fikrlarini bayon qilgan. Tadqiqotni bajarishda Rossiya mustamlakachiligi va sovet davri tadqiqotlaridagi ilmiy xulosalariga tayanib qolganligi yaqqol seziladi. Chunki ruslar tomonidan kiritilgan "beklik" atamasi amirlik davrida mavjud bo'lмаган.

Y.I. Avazov tomonidan bajarilgan "XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining janubi-sharqi bekliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot" nomli dissertatsiyasida ham viloyatning mahalliy boshqaruv tuzulmasi yoritib berilgan. Ilmiy tadqiqot ishining birinchi bobida viloyatning ma'muriy birliklarga bo'linganligi, boshqaruv tizimi bayon qilingan.

Buxoro amirligi markaziy va mahalliy boshqaruv masalasi ham ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsada hali hanuz ushbu masalaga qiziquvchilar soni oshib bormoqda. Bu esa o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'ringa ega bo'lgan Buxoro amirligining boy moddiy va ma'naviy merosi xalq e'tiboriga havola qilinishiga hamda butun dunyoda amirlik nufuzining ortishiga xizmat qiladi.

Xullas, Buxoro amirligi markaziy boshqaruv masalasi yaxlit holda o'rganishga va hali tarjima qilinmagan fors tilidagi manbalar asosida yoritilsa yanada foydaliroq bo'lar edi.

Buxoro amirligi mahalliy boshqaruv masalasi yaxlit tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Ushbu masala tarixi R.E. Xoliqovaning tadqiqotlarida umumiy holda hamda ayrim viloyatlar tarixiga

² Таниева Г.М. Қарши вилоятининг Бухоро амirlиги сиёсий, ижтимоий-иктисодий хаётида тутган ўрни (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг биринчи ярми). Тарих.фан.номзод.дисс. Тошкент. 2008. –Б 53.

³ Холиқова Р.Э. Вассал Бухоро амirligining маъмурий-сиёсий тузулиши. Тарих, мустақиллик, миллый ғоя. Тошкент. 2001. –Б 206-208.; Вассал Бухоро амirligida маҳаллий бошқарув. Тарих, мустақиллик, миллый ғоя.

Тошкент. 2001. –Б 209-210.; Вассал Бухоро амirligida маҳаллий бошқарув. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. Тошкент. Академия, 2002. –Б 209-210.

bag'ishlangan tadqiqotlarda ya'ni G.M. Taniyeva, Y. Avazov, F.B. Ochilidiev va boshq. Buxoro amirligi tarkibiga kirgan viloyatlarda istiqomat qiladigan aholi an'analaridan, qadriyatlaridan kelib chiqqan holda boshqaruv apparati shakllantirilganligi bois, har bir viloyatda mahalliy boshqaruv turli hil shakllarda olib borilgan. Shu sababli ham ushbu masalani yaxlit holda tadqiq qilish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Таниева Г.М. Қарши вилоятининг Бухоро амирлиги сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ҳаётида туттган ўрни (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг биринчи ярми). Тарих.фан.номзод.дисс. Тошкент. 2008.
2. Холиқова Р.Э. Вассал Бухоро амирлигининг маъмурий-сиёсий тузулиши. Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. Тошкент. 2001. –Б 206-208.; Вассал Бухоро амирлигига маҳаллий бошқарув. Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. Тошкент. 2001. –Б 209-210.; Вассал Бухоро амирлигига маҳаллий бошқарув. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. Тошкент. Академия, 2000.
3. Очилдиев Ф.Б. XIX – XX аср бошларида Жанубий Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ҳаёт. Тарих.фан.номзод.дисс. Тошкент. 2007. // XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Шарқий Бухоро бекликларида қишлоқ хўжалиги. // ЎзМу хабарлари, Махсус сон. 2013. –Б 153-156. // XIX аср охири – XX аср бошларида Шарқий Бухорода солиқ тизими тарихидан. ЎзМу хабарлари, 2014. № 2. –Б 119-123. Очилдиев Ф.Б. Социально-экономическая жизнь в Южном Узбекистане в конце XIX – в начале XX века. Кандидат исторических наук. дисс. Ташкент. 2007. // Сельское хозяйство в Восточно-бухарских бекствах во второй половине XIX-начале XX вв. Новости Национального университета Узбекистана, Специальный выпуск. 2013. –Стр 153-156. // Из истории налоговой системы Восточной Бухары конца XIX – начала XX вв. Новости Национального университета Узбекистана, 2014 № 2. – Стр. 119-123. Ochildiev F.B. Socio-economic life in Southern Uzbekistan in the late XIX – early XX century. Candidate of Historical Sciences. diss. Tashkent, 2007. // Agriculture in the Eastern Bukhara beks in the second half of the XIX-early XX centuries. News of the National University of Uzbekistan, Special Issue. 2013. – pp. 153-156. // From the history of the tax system of Eastern Bukhara of the late XIX – early XX centuries. News of the National University of Uzbekistan, 2014. № 2. – Pp. 119-123.
4. Авазов Ю.У. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро амирлигининг Жануби-Шарқий бекликларида ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаёт. Тарих.фан.номзод.дисс. Тошкент. 2005. Авазов Ю.У. Социально – политическая и культурная жизнь юго-восточных бекств Бухарского эмирата в конце XIX-начале XX вв. Кандидат исторических наук. дисс. Ташкент. 2005. Avazov Yu.U. Socio -political and cultural life of the south-eastern kingdoms of the Bukhara Emirate in the late XIX-early XX centuries. Candidate of Historical Sciences. diss. Tashkent. 2005.